



RANG TASVIR VA NATYURMORT TURLARINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Sotvoldiyeva Marjona Javlon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi*

sotvoldievamarjona@icloud.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda rang tasvir tushunchasining ma'nosi, uning san'atdagi o'rni va shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, natyurmort janrining nazariy hamda amaliy jihatlari keng yoritilib, 20 turdagi natyurmort namunalariga misollar keltirilgan. Har bir natyurmort turi orqali kompozitsiya, rang uyg'unligi va yorug'lik-soya muvozanati tahlil etilgan. Tadqiqot san'at ta'limi jarayonida rangni his qilish, tasvirni to'g'ri joylashtirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim metod sifatida baholangan.*

Kalit so'zlar: *rang tasvir, natyurmort, kompozitsiya, yorug'lik, soya, rang uyg'unligi, shakl, ijodkorlik, san'at, tasviriy san'at metodikasi.*

Kirish

San'at inson tafakkurining eng nozik ifodasi bo'lib, unda rang, shakl va mazmun uyg'unligi katta ahamiyat kasb etadi. Rang tasvir san'ati bu jarayonning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida narsa va hodisalarning hajm, yorug'lik, muhit hamda his-tuyg'ularini ranglar orqali ifodalaydi. O'zbek san'atida "rang tasvir" atamasi XX asr boshlarida ilmiy adabiyotlarga kirib kelib, Kamoliddin Behzod maktabi an'analari asosida shakllangan. Natyurmort esa rang tasvirning asosiy janrlaridan bo'lib, unda predmetlar joylashuvi, ularning o'zaro rang uyg'unligi va kompozitsion tuzilishi o'rganiladi. Ushbu ishda rang tasvir va natyurmort turlarining nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganilib, ularning san'at ta'limidagi o'rni yoritiladi.

Asosiy qism

Rang tasvir so'zining ma'nosi: "Rang"- predmetlarning ko'rinishidagi tabiiy tus, yorug'likning aks etish xususiyati. "Tasvir"- narsa, voqea yoki manzaraning chizilgan, bo'yalgan yoki ifodalangan shakli rang tasvir - bu ranglar orqali shakl, yorug'lik, hajm, va muhitni ifodalash san'atidir. "Rang tasvir" ikki so'zdan tashkil topgan: "Rang"- fors tilidan olingan so'z, ma'nosi tus, bo'yoq, rang-baranglik. "Tasvir"- ham fors-tojik tilidan o'tgan, ma'nosi ko'rinish, chizish, chizilgan yoki tasavvur qilingan narsa, obraz degan ma'nolarni anglatadi. Qisqa qilib aytganda Rang tasvir "rang orqali ifoda etilgan tasvir" degan ma'noni anglayadi. Rang tasvir atamasini fanga Yevropa san'ati orqali tasviriy san'at tizimiga kirib kelgan.

O'zbekistonga "rang tasvir" terminini XX asr boshlarida san'at maktablari ochilishi bilan ilmiy adabiyotlarga kirgan. Uni o'zbek san'atshunosligida Kamoliddin Behzod





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

maktabi an'analari bilan bog'lashadi, chunki u rangni kompozitsiya va mazmun bilan uyg'un ishlagan hisoblanadi. O'zbek tilida "Rang tasvir" yushunchasini fanga Toshkent badiiy bilim yurtlari (masalan, P.P.Benov nomidagi maktab) va keyinchalik Kamoliddin Behzod nomidagi institut metodlarida mustahkamlangan. Rus tilidagi manbalarda bu "живопись (jivopis) deb yuritiladi), va uni O'zbekiston san'at ta'limiga rus realist maktabi vakillari olib kirgan. Rang tasvir O'zbekistonda Kamoliddin Behzod maktabi an'analari bilan bog'lanadi, u rangni kompozitsiya va mazmun bilan uyg'un ishlatgan.

Natyurmort turlari 20-ta (misol).

1 Meva natyurmorti: olma, uzum, olxo'ri, apelsin, banan. Misol: Bu turda mevalar idish yoki stolda joylashtiriladi. Rang uyg'unligini va shakllarni chiroyli aks ettirish maqsadida bunaqa natyurmortlar qo'yiladi.

2 Sabzavot natyurmorti: sabzi, pomidor, bodring, piyoz, karam. Misol: Turli rang va teksturadagi sabzavotlarni stolda yoki idishda joylashtirib, yorug'lik va soya bilan hajm berish.

3 Gullardan tashkil topgan natyurmort: lola, siren, atrgul, boychechak. Misol: Gullarning rangini va shaklini uyg'un ko'rstish, vazadagi kompozitsiyani yaratish tushuniladi.

4 Oshxona buyumlari natyurmorti: choynak, piyola, stakan, taom, idishlar, qozon. Misol: Metall va shisha buyumlarning yorug'lik aksini va rangini ifodalash.

5 Milliy va an'anaviy buyumlar natyurmorti: gilam, kashta, milliy kiyim qisimlari, an'anaviy taomlar. Misol: Madaniy kontekstni aks ettirish, milliy naqsh va ranglardan foydalanish.

6 Kitob va ish stoli natyurmorti: ochiq kitob, ruchka, qog'ozlar, stakan, choynak. Misol: Ish joyi va tartibini, ob'ektlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatish tushuniladi.

7 Musiqa asboblari natyurmorti: gitara, skribka, pianino klavishlari, nay va boshqalar. Misol: Musiqiy asboblarning shaklini, teksturasini va ritm hissini bilish uchun shu turdagi natyurmortlar qo'yiladi.

8 Hayvon yoki tabiat motivli natyurmort: qush, baliq, qurutilgan o'simliklar, hayvon shaklidagi buyumlar. Misol: Tabiat unsurlarini kompozitsiyada uyg'unlashtirish, rang va shakllarni o'rgznish maqsadida.

9 Murakkab/kompozitsion natyurmort: meva, gullar, shisha va metall buyumlar, mato naqshlari birlashtirilgan rasm. Misol: Bir nechta ob'ektni bir kompozitsiyada uyg'unlashtirish, rang, chiroq-soya va perespektivani ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

10 Harakatdagi buyumlar natyurmorti: shamol bilan silkinayotgan gul bargi, oqayotgan sharbat yoki suv. Misol: Harakat hisini beradi, ob'ektlarning shakl va rang o'z joyidan siljigan sari, o'zgarishini ifodalash maqsadida.

11 Shisha va metall buyumlar natyurmorti: shisha idish, metall choynak, piyola, qozon. Misol: Refleks va yorug'lik aksini, material xususiyatini ifodalash.

12 Ichki interyer (stol, vaza, idish) natyurmorti: stolda vaza, idish, mebel qismlari bilan sahna. Misol: ichki muhitni va ob'ektlarning joylashuvini uyg'unlashtiradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

13 Qishloq hayoti peredmetlari natyurmorti: savat, dalada mehnat qilinadigan asboblari, paxta, chorva buyumlari. Misol: qishloq hayotining oddiy elementlarini aks ettirish.

14 Taom va ichimlik natyurmorti: milliy taomlar, choynak, stakan, meva sharbatlari. Misollar: Rang tuzilmasi va kompozitsiyani uyg'unlashishiga yordam beradi.

15 Qog'oz, ruchka, eskiz asboblari natyurmorti: ruchka, qog'oz varaqalari, bo'yoq asboblari. Misollar: O'qish uoki ijodiy jarayonini aks ettirish.

16 Moda aksessuarlari natyurmort: Shlyapa, sumka, taqinchoqlar, milliy kiyim aksessuarlari. Misol: Rang va shakl uyg'unligini moda elementlarida ifodalash.

17 Qog'oz va mato kombinatsiyasi natyurmorti: mato, qog'oz, kitob varaqlari yoki dekor buyumlar qo'yiladi. Misol: Tekstura va rang uyg'unligini birlashtirish.

18 Quritilgan gullar va o'simliklar natyurmorti: qurutilgan gul, barg, shoxlari, tabiiy o'simliklar.

19 Bolalar o'yinchoqlari natyurmorti: ayiqcha, bloklar, bola o'yinchoqlari, mashinalar. Misol: Rang va shakl uyg'unligi, kichik elementlarni aks ettirishni o'rgatadi.

20 Minimalistik natyurmort (bir-ikki buyum bilan sodda kompozitsiya) masalan bitta meva, piyola, oddiy gul va vaza. Misol: Soddalik va toza kompozitsiya, rang uyg'unligini ifodalash.

Shu qatorda natyurmort turlari ko'p, bular har bir ijodkorning ziyraklikka, ranglarni yanada tiniq ko'rishlikga chorlaydi. Rang tasvir va natyurmort san'atdagi asosiy metod bo'lib, ijodiy fikrlash, rang uyg'unligi va kompozitsiya qobiliyatini rivojlantiradi. Natyurmort mashqlari orqali san'at talabalari rang uyg'unligi, chiroq-soya va kompozitsiya printsiplarini mukammal o'rganadi. Murakkab va milliy motivlar bilan ishlash kelajakda ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Xulosa

Rang tasvir va natyurmort san'atining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ijodkorlik, estetik tafakkur va tasviriy madaniyatni rivojlantiradi. Natyurmort orqali san'at o'rganuvchilari rang uyg'unligi, shakl, hajm va yorug'lik-soya munosabatini chuqur o'zlashtiradilar. Har bir turdagi natyurmort — bu o'ziga xos badiiy mashq bo'lib, meva, gul, buyum, mato yoki metall kabi predmetlar orqali rang hissiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ijodkor nafaqat rangni, balki predmetlar o'rtasidagi ichki uyg'unlikni sezadi. Shu bois rang tasvir va natyurmort mashqlari san'at ta'limida amaliy va estetik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Rakhmatov. Rang va kompozitsiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. L. G. Dobretsov. Natyurmort san'ati va rang uyg'unligi. Moskva: Iskusstvo, 2005.
3. P. P. Benov. Tasviriy san'at metodikasi. Toshkent: Fan, 2002.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

4. Kamoliddin Behzod maktabi an'analari bo'yicha o'quv qo'llanma.
Toshkent: Tasviriy san'at instituti, 2015.

5. E. G. Vagner. Rang nazariyasi va tasviriy san'at. Sankt-Peterburg: Akademiya,
2008.

6. O'zbekiston Respublikasi san'atshunoslik jurnallari: "San'at va Tasvir", 2012–
2020 yillar, Toshkent.

